

ADABIYOTDA FAXRIYA AN'ANA VA IZDOSHIYLIK HAQIDA TUSHUNCHALAR

Ismatova Mohigul To'yevna

G'ijduvon ixtisoslashtirilgan maktabi ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.13243487>

Annotatsiya. Faxriya Sharq mumtoz adabiyotida keng tarqalgan adabiy san'at turi bo'lib, kichik lirik she'rlarda bir baytdan, katta hajmli asarlar: qasida va dostonlarda esa bir necha baytdan iborat bo'ladi. Faxriya shoirning iste'dod darajasi, asarlarining badiiy yuksakligi hamda erishgan muvaffaqiyatlari va shon-shuhratidan faxrlanib bitgan she'r-u baytlari tarzida odatda she'riyatda muayyan maqomga erishgan shoirlar tomonidan qalamga olinadi.

Kalit so'zlar: faxriya, Sharq adabiyoti, janr, badiiy san'at, arab adabiyoti, fors adabiyoti, Sayfi Saroyi, Atoy, Alisher Navoiy, Ubaydiy.

CONCEPTS OF HONORARY TRADITIONS AND DISCIPLINERY IN LITERATURE

Abstract. Fakhriya is a type of literary art that is widespread in Eastern classical literature, and consists of one verse in small lyrical poems, and several verses in large-scale works: odes and epics. Honorary poems are usually written by poets who have achieved a certain status in poetry in the form of verses that are proud of the poet's talent level, the artistic excellence of his works, and his achievements and fame.

Key words: honor, Eastern literature, genre, art, Arabic literature, Persian literature, Sayfi Saroyi, Atoy, Alisher Navoi, Ubaydi.

ПОНЯТИЯ ПОЧЕТНЫХ ТРАДИЦИЙ И ДИСЦИПЛИНАРНОСТИ В ЛИТЕРАТУРЕ

Аннотация. Фахрия — вид литературного искусства, широко распространенный в восточной классической литературе. Состоит из одной строфы в небольших лирических стихотворениях и нескольких строф в крупных произведениях: одах и эпосах. Почетные стихи обычно пишутся поэтами, достигшими определенного статуса в поэзии, в виде стихов, которые гордятся уровнем таланта поэта, художественным совершенством его произведений, его достижениями и славой.

Ключевые слова: честь, восточная литература, жанр, искусство, арабская литература, персидская литература, Сайфи Сарайи, Атойи, Алишер Навои, Убайди.

Sharq adabiyotida faxriya janrining ilk ildizlari arab adabiyotida qasida janri tarkibida vujudga kelgan bo'lib, ularda dastavval muayyan insoniy fazilatlarni qayd etish, ularning boshqa maxluqotlardan aql, idrok, adolat va qahramonlik kabi sifatlar bilan ajralib turishi faxr bilan aytilgan. Keyinchalik esa shoirlar o'z qabilalari, avlodlarining sha'nini turli da'vo va janglarda himoya qilish uchun faxriyalarga murojaat qilganlar.

Arab adabiyotida ilk faxriyanavis shoir sifatida Abu-t-Toyyib Ahmad ibn al-Husayn Mutannabiy nomi tilga olinadi. Uning deyarli barcha she'rlarida o'zi haqidagi e'tiroflar u yoki bu shaklda namoyon bo'ladi. Arab shoiri boshqa ijodkorlar orasida yuqori martabalik, ulug'lik va buyuklikni da'vo qilar ekan, o'z shijoati, g'ayrati, nozik tab'ligi hamda fasohat va balog'atini baland pardalarda faxr bilan badiiy talqin etadi.

Arablarda shakllangan bu hodisa fors-tojik adabiyotida ham namoyon bo'ldi. Biroq faxriyalarning mavzu doirasi kengaya bordi. Faxriyalarda faqat ijodkor va uning asarlariga tegishli fazilatlar emas, balki o'zlari yashagan davr sulola vakillari va podshohlar, ular bino qilgan

me'moriy obidalar, ularning shaxsiy fazilatlarini va insoniy sifatlarini ham g'urur bilan kuylandi. Xususan, Abulqosim Firdavsiy o'z "Shohnoma"si orqali fors tiliga qayta jon bag'ishlagani, u barpo qilgan obida asrlar va zamonlar sinovlariga bardosh berishini, sira zavol ko'rmasligini e'tirof etsa, Hofiz Sheroziy she'rlarining ohangi va jozibasi kashmirliklar va turklarni raqsga tushishga majbur qiladi deb yozadi.

O'zbek mumtoz adabiyotida faxriya namunalarini Atoyi ijodida ham uchratish mumkin. Jumladan:

Atoyi so'zlari lutfiga yetmaguncha kishi,
Kamol-u zehn-u zarofatni ko'rmagantek edi.

Yoki

Quloq solsang Atoyi so'zlariga,
Nisori etgay sanga yuz durri maknun.

Ma'lumki, Atoyi zamonasining eng iste'dodli shoirlardan biri bo'lgan. Baytdagi "Atoyi so'zlari" - bu shoir qoldirgan ma'naviy merosiga ishora. "Kamol" - ma'naviy komillik sifati, "zehn" - aql, "zarofat" - noziklik. Demak, dastlabki baytda "Atoyi so'zlari" ma'nosiga yetmagan kishi ma'naviy komillikka erisha olmaydi, deydi shoir.

Ikkinchi baytdagi "durri maknun" - yashirin, noyob go'zallik. Shoir bu birikma orqali o'z asarlarining inson hayotidagi ta'sirini ko'rsatadi. Agar uning so'zlariga quloq solsang, senga yuzlab yashirin ma'naviy xazinalarni taqdim etadi, -deydi shoir.

Yana o'zbek mumtoz adabiyoti vakili Sayfi Saroyi ijodida ham faxriyalarni uchratish mumkin. Jumladan:

Alarning ush biri Sayfi Saroyi,
Jahon oriflarining xoki poyi.
Ani sen jumla shoir kamtari bil,
Qamar yuzga hamisha mushtari bil.

Sayfi Saroyi o'z ijodini bilan faxrlanar ekan, o'zini "jahon oriflari"ning "xoki poyi" deya ta'riflaydi. Ikkinchi baytdagi "qamar" va "mushtari" so'zlari bilan o'z she'ridagi ma'naviy go'zalliklarga ishora qiladi.

O'zbek mumtoz adabiyotning asoschisi Alisher Navoiyning turli asarlari tarkibida ham faxriya baytlarni uchratishimiz mumkin. Shoir deyarli barcha ijod namunalarida o'z iste'dodini Allohning inoyati va lutfi sifatida baholasa-da, mana shu "in'om"dan faxrlanish hissini o'z baytlariga singdirib ketadi. Jumladan,

Ey Navoiy, oltinu shingarfu, zangor istama,
Bo'ldi nazming rangidin devon qizil, sorig', yashil.

Baytda Alisher Navoiy o'z ijodini, ya'ni nazmining rangin va go'zalligidan faxr etadi. U "oltinu shingarfu" bilan shodlanishni istamaydi. Chunki nazmining rangidan "devon qizil, sorig', yashil" bo'ldi. Mazkur tashbeh orqali shoir devoni rang- barang mavzular, tashbehlar va badiiy san'atlar bilan bezatilganligini ta'kidlaydi va o'z ijodiga kamtarona baho beradi.

Boshqa bir g'azalda esa:

Ey Navoiy, muta'kidsan qayda ko'rsang pok yuz,
Yuz kishida yo'q ekin bir sen kibi pok e'tiqod.

Bilamizki, Alisher Navoiy naqshbandiya tariqatini rasman qabul qilgan va uning talablarini mukammal bajargan tariqat vakili. Shuning uchun shoir o'z ijodida poklikni va haqiqiy e'tiqodni eng oliy qadriyatlardan biri sifatida ta'riflaydi. Uning fikricha, pok yuz va pok e'tiqod insonning ma'naviy dunyosini belgilaydi. Mazkur baytda shoir o'z e'tiqotini "yuz kishining e'tiqodidan baland" ekanligini tajnis she'riy san'ati vositasida badiiy talqin etadi.

Alisher Navoiydan keyin ijod qilgan qalam ahllari o'zlarini uning izdoshi sifatida ko'radilar va bundan faxr etganlar. Buni Qul Ubaydiy ijodida keltirilgan quyidagi bayt ham tasdiqlaydi.

She'rlar aytib Ubaydiy ham Navoiy she'ridek,
Ko'rki, shoirlar aro ul dog'i shoir bo'lg'usi.

Baytda shoir Navoiyning ijodiy merosini tan olishi bilan birga o'zini Navoiy bilan bir qatorga qo'yadi. "Shoirlar aro ul dog'i" iborasi orqali shoir o'zining boshqa shoirlar orasida alohida o'rin tutishini, ya'ni badiiy mahorati va yetuk asarlari bilan tanilganligiga ishora qiladi.

Faxriya arab, fors va turkiy she'riyatda keng tarqalgan adabiy hodisalardan biri bo'lib, shoir tomonidan o'z ijodi va iste'dodidan faxrlanib aytgan so'zlari aks etgan she'riy parcha yoki alohida she'r turidir. Agar mo'tabar lug'atlarga murojaat qilinadigan bo'lsa, faxriya yoki mafoxira (ar.) – maqtanmoq, faxrlanmoq shuningdek, o'z ulug'ligini bildirish, o'zi bilan maqtanish degan ma'nolarda keladi. Faxriya kichik lirik she'r, masalan g'azallarda bir baytdan, katta hajmli asarlar: qasida va dostonlarda esa bir necha baytdan iborat bo'lishi mumkin. Ana shunday baytlar ishtirok etgan yoki butunlay shunday baytlardan iborat bo'lgan asarlar *g'azali faxriya, qasidai faxriya* deb ham nomlanadi. Faxriyaga ba'zi manbalarda janr, ba'zilarida esa she'riy san'at sifatida qarash bor. Agar faxriya turli janrdagi she'rlar ichida voqe' bo'lishi mumkinligi e'tiborga olinsa, uni *husni ibtido, husni matlab* kabi ma'naviy san'atlar qatoriga qo'shish to'g'riroq bo'ladi [Adabiyotshunoslik lug'ati 2010, 342-243].

Faxriyada shoir o'z ijodini boshqa bir shoir ijodiga, muhim bir voqea-hodisa yoki obyektga kamtarona, mubolag'ali yoki kinoyaviy tarzda taqqoslaydi, qiyoslaydi.

Barcha Sharq mutafakkirlari ijodida faxriya hodisasi alohida o'rin egallaydi. Faxriyalar bir baytdan bir necha baytgacha hajmda bo'lib, ular ijodkorlarning turli janrdagi asarlari: g'azallari, qit'alari, dostonlari tarkibidan o'rin olgan. Zamonaviy adabiyotda esa faxriyalarni alohida she'r turi sifatida ham ko'rish mumkin. Shunga ko'ra faxriyalarni mavzu ko'lamiga ko'ra, shartli ravishda quyidagi guruhlarga ajratish mumkin:

- 1) favqulodda iste'dod sohibi ekanligini bayon qilish;
- 2) ustozlarini ulug'lash asnosida o'zining ularga munosib shogird ekanligini ta'kidlash;
- 3) o'z ijodini boshqa shoirlar bilan qiyoslash;
- 4) o'z she'rlari badiiyati bilan faxrlanish;
- 5) o'z asarlarining shuhratidan iftixor tuyg'ulari;
- 6) o'zi yashagan zamon bilan faxrlanish;
- 7) o'z ijodini taftish qilish

Muhimi shundaki, faxriyalar shunchaki o'zidan faxrlanish bo'lmay, shoirning badiiy olamiga kirish yo'lidagi o'ziga xos yo'ldir. Chunki ularda shoir o'zining iste'dodi, salohiyati, mahorat qirralarini ochibgina qolmay, asarlarining janriy tarkibi, mavzu ko'lamiga va obrazlar olami, badiiy yuksakligi, salmog'i va ahamiyati haqida ham fikr yuritadi. Shuning uchun ham

faxriyalarni shoir o'z ijodining ilk tadqiqotchisi deyish mumkin. Chunki she'rda muallif o'z ijodi bilan faxrlanish orqali asarlarining ko'lami, badiiyati va she'riyat talablarini boshqa ijodkorlar bilan solishtirish jarayonida o'z ijodiga baho beradi. Buni shoir o'z ijodini baholashi, yutuqlaridan faxrlanishida ko'rishimiz mumkin. Bu bilan ijodkor o'z asarlarini o'rganib boshqalarga yutuqlarini ko'rsatib o'tayotganligi bilan izohlash mumkin.

Mumtoz arab adabiyoti an'analari asosida sayqal topgan faxriyanavislik keyinchalik fors adabiyotiga ko'chib, betakror nazm uslubining paydo bo'lishiga zamin yaratdi. Mumtoz fors adabiyotining namoyandalari ham o'z o'rnida yashagan davri, o'z mamlakatlari, sulola vakillari va podshohlar, ular bino qilgan me'moriy obidalar, ularning shaxsiy fazilatlar va insoniy sifatleri bilan she'rda g'ururlanadigan, ba'zan o'zlari yaratgan ijod namunalari bilan faxrlanadigan bo'ldilar. Fikrimizning dalili sifatida Rudakiy, Firdavsiy, Hoqoniy Shirvoniy, Hofiz Sheroziy, Muslihiddin Sa'diy Sheroziy kabi shoir va mutafakkirlarning turli yo'nalishlarda ijod etgan faxriyalarini keltirish mumkin. Jumladan, Abulqosim Firdavsiy o'zining mashhur "Shohnoma"sida va Hofiz ijodida ham faxriyalarning turli ko'rinishlarini uchratish mumkin.

Yuqorida keltirilgan tasnifga ko'ra, an'anaviy faxriyalarning bosh mavzusi shoirlikdan faxr tuyish, oshiqlikdan faxrlanish bo'lsa, noan'anaviy faxriyalarda faqirlik, zohid va qalandarlik, xoksorlik bilan faxrlanish asosiy mazmuni tashkil etadi. Mustaqil va ichki turkumdagi faxriyalarda esa badiiy san'atlar qo'llangan faxriyalar va aralash mazmun kasb etgan faxriyalar kuzatiladi. Qiziqarli jihati shundaki, faxriyalar haqida so'z ketganda ularning salbiy ko'rinishlari ham mavjud bo'lib, ular mafoxira hamda manofiralar misolida kuzatiladi. Mafoxirada muallif qarama-qarshi tomonning yomon sifat va odatlarini tanqid ostiga olib, o'zining afzal sifat va fazilatlar bilan maqtansa, manofirada qarama-qarshi tomonning nafrat uyg'otadigan salbiy xarakterlari ko'rsatib o'tiladi. Bu turdagi faxriyalarni yuqoridagi tasnifning *g'oyib* va *hozir* degan qismlarida mushohada etish mumkin.

REFERENCES

1. Adabiyotshunoslik lug'ati. Quronov D., Mamajonov Z., Sheraliyeva M. 2010. Toshkent: Akademnashr.
2. Alisher Navoiy. 1988. G'aroyib us-sig'ar. MAT. 20 jildlik. T.3. Toshkent: Fan.
3. Alisher Navoiy. 1989. Navodir ush-shabob. MAT. 20 jildlik. T.4. Toshkent: Fan.
4. Alisher Navoiy. 1990. Badoye' ul-vasat. MAT. 20 jildlik. T.5. Toshkent: Fan.
5. Alisher Navoiy. 1990. Favoyid ul-kibar. MAT. 20 jildlik. T.6. Toshkent: Fan.
6. Alisher Navoiy. 1993. Saddi Iskandariy. MAT. 20 jildlik. T.11. Toshkent: Fan.
7. Alisher Navoiy. 2000. Muhokamat ul-lug'atayn. MAT. 20 jildlik. T.16. Toshkent: Fan.
8. Alisher Navoiy: qomusiy lug'at. 2016. Ikki jildlik. 1 – 2-jildlar / Mas'ul muharrir Sh.Sirojiddinov. Toshkent: Sharq.